

Nilufar Usmanova

"Bir kuning baxsh et"

Visit "[Bir kuning baxsh et](#)" on [MotoLyrics.com](#)

Achinmayman seni sevib o'tgan kunimga,
Achinmayman sen deb bedor bo'lgan tunimga,
Sen meniki bo'lmasang ham, qolgan umrimda
Asragayman sevging ko'mib abgor dilimda.

Nima bo'lsa bo'lib erta kun hayotimda,
Sevging uchun yashay bugun muhabbatim-la.
Seni hech kim sevmaganday seva oldim men,
Lek adashkan baxtim bo'lding xiyonating-la!

Buguning baxsh et tonglar otgunca ertaga,
Bir kuning baxsh et kunlar botgunca ertaga,
Jonim, meni sev, nima bo'lsa bo'lib o'tar,
Yuragimga dardlar solar ertaga. (2x)

Sen deb sochilgan mehrim berib ketmasam ham,
Sen deb ochilgan qalbim uzib ketmasam ham,
Sendan o'zgani yana sevib ketmasam ham,
Taqdiring buyurganga berib ketaman.

Buguning baxsh et tonglar otgunca ertaga,
Bir kuning baxsh et kunlar botgunca ertaga,
Jonim, meni sev, nima bo'lsa bo'lib o'tar,
Yuragimga dardlar solar ertaga. (2x)

Visit [Nilufar Usmanova](#) page on [MotoLyrics.com](#), to get more lyrics and videos.